




ISSN 2181-6833

# PEDAGOGIK MAHORAT

MS  
2022



ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**Maxsus son**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2022**

## PEDAGOGICAL SKILLS

The scientific-theoretical and methodical journal

2022, special release

The journal is submitted to the list of the scientific journals applied to the scientific dissertations for **Pedagogic** and **Psychology** in accordance with the Decree of the Presidium of the Ministry of Legal office of Uzbekistan Republic on Regulation and Supervision of HAC (The Higher Attestation Commission) on December 29, 2016.

The journal is published 6 times a year

The journal is registered by Bukhara management agency for press and mass media in Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

**Founder: Bukhara State University**

**Publish house:** Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

e-mail: ped\_mahorat@umail.uz

### EDITORIAL BOARD:

**Chief Editor:** Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

**Deputy Editor:** Pedagogical Sciences of Economics, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade.

**Editor:** Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Asst. Prof. Alijon R. Khamraev

*Doctor of Economics Sciences Obidjan X. Xamidov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzakbai Sh. Begimkulov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holby I. Ibrahimov*

*Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. M. Mahmudova*

*Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)*

*Doctor of Philology, Prof. Mustafa Said Arslon (Turkey)*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R. Amanov*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev*

*Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev*

*Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov*

*Doctor of Economics Sciences Otabek S. Kahhorov*

*Doctor of Philology Kaxramon R. Tuxsanov*

*Doctor of Historical science, Prof. Sh. Hayitov*

*Doctor of Historical science, Prof. Halim H. Turaev*

*Doctor of Historical science, Prof. Q. Rajabov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Xadicha S. Shomirzaev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Roza X. Niyozmetova*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova*

## MUNDARIJA

Baxtiyor ADIZOV. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	7
Ширинбой ОЛИМОВ, Юлдуз САИДОВА. Талабалар маънавиятини ривожлантиришнинг йўналишлари .....	10
Bolta XODJAYEV. Shaxs ijtimoiylashuvida fuqarolik madaniyati muhim pedagogik omil sifatida .....	16
Нодира МУСАЕВА, Нафиса МУСАЕВА. Разработка теоретических основ технологии неразрывности обучения основанной на педагогической таксономии .....	20
Baxshillo UMAROV. Yoshlarda yangicha dunyoqarashni shakllantirishda sharq allomalari merosidan foydalanish imkoniyatlari .....	24
Кобилжон АБДУЛЛАЕВ. Приоритетные направления государственной образовательной политики в сфере дошкольного образования.....	28
Shabon FARMONOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari .....	31
Гулия ХАБИБОВА. Функция махаллы в современном обществе Узбекистана	36
O'lmas QURBONOVA. Pedagogik fikrlar taraqqiyotining ayrim masalalari.....	39
Manzura OCHILOVA. O'quvchilarning ma'naviy barkamol shaxs bo'lib shakllanishida al- Buxoriy ta'limotining o'rni .....	42
Bobomurod JURAYEV. Abushakur Balxiyning "Ofarinnoma" asarida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari.....	45
Gulchehra IZBULLAYEVA. Didaktik asarlarda do'stlik munosabati va uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni.....	49
Nargiza BAXRIYEVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanganlik dinamikasi .....	54
Dildora TOSHEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalashda tabiiy fanining o'rni va ahamiyati.....	59
Olimjon AHMADOV. Taraqqiyparvarlarning Buxoroda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishga qaratilgan g'oya va qarashlari .....	63
Oybek ORTIQOV. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida tabalalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	66
Matluba XOJIYEVA. Abu Rayhon Beruniynig axloqiy qarashlari .....	70
Nigina ISMATOVA. Yoshlarni oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish usul va vositalari .....	76
Lola ELIBOYEVA. Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari .....	80
Feruza RAMAZONOVA. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda kasbiy e'tiqod tuyg'usini shakllantirish imkoniyatlari .....	86
Ma'rifat UMUROVA. Bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda milliy merosning o'rni .....	89
Nilufar RAXIMOVA. Tasavvuf ta'limotining tarbiyaviy ahamiyati.....	93
Mirjon AMONOV. O'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning omillari va mezonlari.....	96

Birinchi oqimning mashhur nazariyotchilari Zayniddin Muxammad Imom G'azzoliy (1058-1111) va Axmad Yassaviylardir. G'azzoliy inson kamolga yetishi, Xudo «vasliga» erishishi uchun ma'lum shartlarni bajarmog'i lozimligini ta'kidlaydi.

Ikkinchi oqim Naqshbandiya ta'limoti bilan bog'likdir. Bu oqim XIII asr oxirlarida shakllanib, XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda keng rivojlanadi.

Uchinchi oqim- Kubraviya tariqatidir.

Aytilganlarga muvofiq bu uch oqim tegishlicha, Yassaviya, Nakshbandiya, Kubraviya oqimlari deb ataladi.

Tasavvufning Turon zaminda paydo bo'lib, keyinchalik butun islom dunyosida keng tarqalgan bu uch tariqatdan birinchisi Xoja Axmad Yassaviy hazratlari nomi bilan bog'lik. Shuning uchun bu oqim Yassaviya tariqati deb ataladi.

XII asrdan keyin bu tariqat butun Turkiston hududida keng tarqaladi.

Yassaviya ta'limoti bo'yicha, nodonlik tufayli xayotda savodsizlik, diyonatsizlik, ota-ona va ustozlarga hurmatsizlik, ma'naviy qashshoklik, yovuzlik, nodonlik, razolat hukm surgan joyda, ma'rifat bo'lmagan o'lkada inqirozga yuz tutiladi.

Yassaviy qarashlarida islomni tasdiq etish g'oyasi markaziy o'rinni egallaydi. Odam Alloxning eng go'zal va mukammal ijodi, shuning uchun uni e'zozlash, ardoqlash lozim.

Yassaviy kishilarni adolatsizlikdan himoya qilish g'oyasini targ'ib etadi. Axmad Yassaviy turkiyzabon xalqlarning o'ziga xos tasavvuf qoidalarini yaratdi. Bu tariqatning eng asosiy fazilati-uning xalqchilligidir. Unda ham Allox, ham inson madh etiladi.

Axmad Yassaviyning «Devoni hikmat» asarida insonni qadrlash, uni adolatsizlikdan, zulmdan himoya etishga, komillik va mukammallikka da'vat etiladi. Yassaviya tarikatida diniy-axlokiy, falsafiy g'oyalar behisobdir. Jumladan, unda ariq ochib, ikki tup daraxt ko'kartiring, qo'lingizdan kelsa, odamlarni ilm-ma'rifat, odob-axlokkaga o'rgating, masjid, madrasa ko'ring, farzandlaringizni mo'min-qobil qilib tarbiyalang, ezgulikka o'rgating deyiladi.

Tariqat bu dunyo qusurlarini insonga yuqtirmaslik, uning softligi va musaffoligi g'oyasini olg'a suradi.

Axmad Yassaviy hikmatlarida poklik, halollik, mexr-shafqat, o'z kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan kun kechirish, g'ayri insoniy ishlarga nafrat bilan qarash, insoniy softlikni saqlashga intilish behad darajada sharaflanadi. Yassaviya tariqati g'oyalari va asosiy qoidalari Xoja Axmad Yassaviyning izdoshlari Sulaymon Bokirg'oniy va Abdulkholik Gijduvoni tomonidan rivojlantirildi.

Abduxoliq Gijduvoni Axmad Yassaviy yo'lini davom ettirib, uning ta'limotini ijodiy boyitdi. U o'zining farzandi uchun maxsus yozilgan "Vasiyatnoma"sida o'g'liga juda ko'p maslahatlarni aytib o'tadi. CHunonchi, shuhrat talab bo'lma, kam gapir, kam ye, oz uxla, hamisha halol va pok yasha, halol ye, har bir kishiga mexr-shafqat ko'zi bilan boq. Mexribon bo'l, hech kimni o'zingdan past hisoblab, uni taxqir etma, birovdan aslo biror narsa ta'ma qilma, degan o'gitlari hozirgi zamon yoshlari uchun ham asosiy yo'l-yo'riqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mahmud A'sad Jo'shon. Islom, tasavvuf va ahloq. Istiqlol. 2000 yil.
2. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. Istiqlol. 1999 yil.
3. Xusayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. Fors - tojik tilidan N.Komilov tarjimasini. – Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
4. Очилова М. О., Эргашева Г. Б. Основы организации самостоятельной работы учащихся // Молодой ученый. – 2014. – №. 8. – С. 852-854.
5. Очилова М. О. Литература народов среднеазиатских ханств XIX века и возможности их использования для формирования патриотизма у молодежи // ББК 74.48 Р 76. – С. 204.
6. Очилова М. О. Взгляды Агахи, Ахмада Дониша и Фазли Намангани на воспитание подрастающего поколения // Вестник науки и образования. – 2021. – №. 3-2 (106). – С. 44-46.
7. Азимова Н. Э., Насимова З.И. Важные особенности человеческого образования в семье // Academy. – 2020. – №. 5 (56).
8. Рахимова Н.А. Роль гуманистических принципов в системе образования Узбекистана // Вестник науки и образования. – 2021. – №. 3-2 (106). – С. 53-55.
9. Очилова М.О., Рахимова Н.А., Курбанова Х.И. Приоритетные направления повышения эффективности преподавания модуля "роль национальных ценностей в формировании духовности молодежи в семье" // Поколение будущего: взгляд молодых ученых-2021. – 2021. – С. 369-373.

---

## O'QUVCHILARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING OMILLARI VA MEZONLARI

---

*Maqolada yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari, omillari va mezonlarining mazmuni ochib berilgan.*

**Tayanch tushunchalar:** *Yangi O'zbekiston, fuqarolik, shaxs, ijtimoiy –pedagogik taraqqiyot, pozitsiya, ma'naviy-ma'rifiy hayot, komil inson, buyuk allomalar, omillar, mezonlar, talqin.*

*В данной статье раскрывается общественно-педагогические особенности формирования гражданской позиции школьников средне-общеобразовательных школ в условиях построения Нового Узбекистана.*

**Опорные понятия:** *Новый Узбекистан, гражданство, личность общественно – педагогическое развитие, позиция, духовно –просветительская жизнь, великие мыслители, импровизация, гармонично развитый человек.*

*This article reveals the socio-pedagogical features of the formation of the civil position of secondary school students in the conditions of the emergence of a New Uzbekistan.*

**Basic concepts:** *New Uzbekistan, citizenship, personality, social and pedagogical development, position, spiritual and educational life, great thinkers, improvisation, harmoniously developed person.*

**KIRISH:** Hozirgi ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyot, ma'naviy-ma'rifiy hayot jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar, "Yangi O'zbekiston"ni, ya'ni huquqiy demokratik davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirishga qaratilgan. Chunonchi, "Yangi O'zbekiston" bu davlat va jamiyat mazmunida xalqimizning ko'p yillik orzu-umidlari, istak-xoxishlari, ulug' ajdodlarimizning orzu-maqсадlari kelajakga bo'lgan ishonch – muddalari mujassamlashgan. Darhaqiqat, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri bilan bo'lgan savol-javobida qayd qilganlaridek, "... Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki hohish – istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, halqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan ob'ektiv zaruratdir" [1,11]. Bu zaruratni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri yosh avlodni barkamol insonlar qilib voyaga etkazish, buning uchun esa ularda hayot toqazosi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot xususiyatidan kelib chiqib **fuqarolik pozitsiyasini** shakllantirish hamda ularni, Vatanga muhabbat, el yurtga hurmat va tug'ilib o'sgan tuproqqa sadoqat ruhida kamolga etkazishdir.

Ilmiy – pedagogik va metodologik manbalarda qayd qilinishicha, fuqarolik pozitsiyasi har bir yosh qalbdagi Vatan, xalq, millat uchun qayg'urushni, yurt va uning yutuqlari bilan faxrlanishni, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ma'naviy-ma'rifiy hayot yo'llarida uchraydigan har qanday to'siqni bartaraf etishga tayyorgarlikni, Vatan himoyasi uchun xushyorlikni ta'minlovchi ijtimoiy-pedagogik tushuncha hisoblanadi va bolalikdan tarkib topaborib, insonning butun umri davomida takomillashadi. Chunonchi, fuqarolik pozitsiyasini egallagan har qanday yosh shu yurt va shu Vatan meniki, uning kelajagi va taraqqiyoti uchun men mas'ulman hamda uning himoyasiga doim tayyor turaman degan ezgu niyat bilan yashaydi.

Bu XXI asr avlodi va Yangi O'zbekiston mamlakati shaxsining aslo o'chmas fazilatidir. Fuqarolik pozitsiyasining muhim ko'rsatkichlarining asosini "Fuqarolik", "Faol fuqarolik", "Fuqarolik mas'uliyati" kabi tushunchalar tashkil etadi, uning mazmun-mohiyatini har bir yoshning chuqur anglashi va uni o'zining shaxsiy e'tiqodiga aylanishiga yo'llamoq o'quv – tarbiya jarayonining muhim vazifasi bo'lib hisoblanadi.

**Asosiy qism:** Ma'lumki, "fuqarolik" kishining aniq bir mamlakat yoxud davlatga mansubligini, shu davlatning ichkarisida va tashqarisida haq-huquqlarining kafolatlanganligini anglatuvchi huquqiy-me'yoriy tushuncha. "Faol fuqarolik" fuqarolik esa fuqaro yashayotgan mamlakatning taraqqiyot jarayonlarida o'zini faol ko'rsatish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirishning ishtirokchisiga aylanishini ta'minlovchi jarayon. Shunga binoan fuqarolik pozitsiyasi tarkib topgan har bir yosh mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga faol ishtirok etadi va shu yurt, shu Vatan g'ami bilan yashaydi hamda xalq manfaatlarini

yo'lida halol mehnat qilishga intiladi. Chunki, mazkur g'oyaning mazmunida shu yurt meniki, uning yutuqlari ham meniki, Vatan va halq muvafaqiyati mening muvafaqiyatim, degan insoniy fazilatlar bilan yashaydi. Bu tushuncha hayotda sodir bo'ladigan har qanday salbiy holatlar, ya'ni diniy ekstremizm, aqidabarastlik, egotsentrizim, erkinlik va mustaqillik niqobidagi axloqsizlikka murosasizlikni tarbiyalashga yordam beradi. SHuning uchun jamiyatni demokratlashtirish, Yangi O'zbekistonni barpo etib, unda tadbirkorlik, bunyodkorlik, ishbilarmonlik, yaratuvchilik sifatlarini tarkib toptirishda fuqarolik pozitsiyasi muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik pozitsiyasining shakllanishida har bir yoshning ijtimoiy-siyosiy faolligi, axloqiy-huquqiy ongliligi, muhim ahamiyatga ega. Zero, "Axloqiy-huquqiy onglilik, adolatli-huquqiy davlatda qabul qilingan qonunlarni, axloq prinsiplarini, fuqarolik Kodeksini mukammal bilish va unga amal qilishga ko'maklashadi, kundalik hayotda oila, maxalla, jamiyatdagi insoniy hulq-odob, odat, intizom asosida faoliyat olib borish kerakligini ifodalaydi. Bu esa har bir o'quvchi - yoshda tartib-intizom, imon-e'tiqod, mas'uliyat va burchni tarbiyalaydi, mamlakatni ravnaq toptirishga o'z hissasini qo'shish ehtiyoji va majburiyat hissini tug'diradi" [3,8-9].

Ilmiy-pedagogik va psixologik nazariya va tajribaning ko'rsatishicha, o'quvchi –yoshlarda fuqarolik pozitsiyasi o'quvchilik davri rivojlanishining turli yoshlarida tarkib topib, takkomillashib boradi. Dastlab oilada ota-ona va kattalarni hurmat qilish, oilaning yutuqlari bilan faxrlanish, muvafaqiyatsizlikdan qayg'urish orqali bolada fuqarolik odatlari va ko'nikmalarining tarkib topishini ta'minlaydi.

Keyingi davr - ya'ni kichik maktab yoshida oiladagi axloqiy hatti-harakatlar va odatlar rivojlana boradi. Ya'ni kichik maktab yoshida o'quvchilarning yangi muhitda yashashi, faoliyat olib borishi, undagi o'qituvchilar, tengdoshlar bilan muloqot, tevarak-atrofdagi bo'layotgan voqealarga munosabat bildirish, xulq-atvor va axloqiy bilimlar, bolaning mulohazalar yuritishi bilan boyib boradi. Bola 4-sinfga kelib, "Tashqaridan bo'ladigan ko'rsatmani kutib o'tirmay, ijobiy-axloqiy ishlarni o'z tashabbusi bilan bajarishga harakat qiladi" [2, 80].

Kichik maktab yoshida boshlangan o'z-o'zini anglash va hatti-harakatlarga, axloqiy – etik me'yorlarga o'z munosabatini bildirish, ma'naviy e'tiqod, hayotiy pozitsiya va ideallarga bo'lgan munosabat o'z-o'zini baholashni tarkib toptirib fuqarolik pozitsiyasining dastlabki ko'rsatkichlarining shakllanganligidan dalolat beradi. Bu hol psixolog V.A.Krutetskiyning ta'kidlashicha o'z-o'zini anglash, mantiqiy o'sish va o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini tug'diradi. Demak, bu yoshda o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi muvafaqiyatlardan faxrlanish, nosozlikdan qayg'urish, o'quvchi yoshlarda fuqarolik pozitsiyasining dastlabki sifatlarini shakllanganligi bilan tavsiflanadi. Bu davrda o'quvchilar o'z kelajaklarini Vatan taraqqiyoti muammolari bilan bog'lashga harakat qilib o'z imkoniyati, qobiliyati, ehtiyojlarini inobatga oladi va ongli kasb tanlash malakasiga ega bo'ladi. Bu esa o'z navbatida har o'quvchida fuqarolik pozitsiyasi tushunchasining mazmun-mohiyatini anglash va uni o'zida tarbiyalashga tayyorlanganligini anglatadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, aytish mumkinki, katta maktab yoshidagi o'quvchi-yoshlarning o'z fikrlariga, nuqtai-nazarlariga, o'z faoliyatlarini baholashlarining ijobiy tus olganligini inobatga olib 10-11 sinflarda o'quvchi-yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va fuqarolik pozitsiyasi shakllanishining mezonlarini aniqlab ularni pedagogik nuqtai-nazardan tavsiflash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dastlab o'quvchi - yoshlar fuqarolik pozitsiyasini shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rib chiqish pedagogik jihatdan asosli bo'ladi. Ilmiy- pedagogik manbalarda ta'kilanishicha, o'quvchi yoshlarning shaxsiy fazilatlar kabi fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga ta'sir qiluvchi ob'ektiv va subyektiv omillar mavjud bo'lib, ular yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllanishini ta'minlaydi. Ularga kuyidagilarni kiritish mumkin: milliy an'analar va qadriyatlar, oila, mahalla, uzluksiz ta'lim, sog'lom turmush tarzi, din va diniy qadriyatlar.


Bu omillar ijtimoiy-ma'naviy hayot jarayonida kuyidagi manbalardan olingan ma'lumotlar yordamida fuqarolik pozitsiyasining davr talabalariga mos mezonlarini tarkib topishiga yordam beradi. Bu manbalar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fan, san'at va adabiyot, maorif, ma'naviy, ruhiy qadriyatlar, ma'naviy ijtimoiy va diniy ma'rifiy marosimlar.

Ushbu manbalar o'quvchi yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllanishining kuyidagi mezonlarini tarkib topishi va rivojlanishini ta'minlaydi. Bular: ijtimoiy siyosiy faollik, vatanparvarlik, internatsionalizm va insonparvarlik, fuqarolik mas'uliyati va majburiyati, o'qishga munosabat, kuzatuvchanlik va maqsadga yo'nalganlik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, tejamkorlik va yaratuvchilik.

Qayd etib o'tilgan mezonlar fuqarolik pozitsiyasini ifodalovchi omillar ta'sirida ko'rsatilgan manbalar yordamida tarkib topib, o'quvchi – yoshlarni ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotga faol ishtirok etishini, Vatanga o'z halqi va millatiga hurmat va sadoqatni, fuqarolik burchi, mas'uliyati, majburiyatiga xissining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga ko'maklashadi.

Fuqarolik pozitsiyasini shakllanishini ta'minlovchi omillar, manbalar va ular ta'sirida o'quvchi-yoshlarda shakllanadigan fuqarolik pozitsiyasini mezonlarini yaxlit bir-butunlikda quyidagi ko'rinishda tasvirlash mumkin:

### Fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning omillari va mezonlari



Milliy an'analar va qadriyatlar – an'ana bu muayyan o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning turmush tarzida, ongida o'z o'rnini topgan, avloddan-avlodga o'tadigan takrorlanadigan qadriyat, odat, bayram sifatida namoyish etiladigan hayotning barcha sohalari uchun qabul qilingan tartib va qoidalar majmui.

Oila – jamiyatning bir bo'g'ini bo'lib, u o'zaro ittifoq asosida tinch-totuv, ahil yashashga va kelajak rishtalarini davom ettirishga yo'naltirilgan mamlakatning kichik bir qo'rg'oni. U ijtimoiy-iqtisodiy hayot talablaridan kelib chiqib ikki tomonlama muxabbatga, sadoqatga, vafodorlikga, poklikga va soflikga asoslangan jamiyatning bir zarrasi.

Maxalla – fuqarolik jamiyatining bir tayanchi. Maxalla uyushib, birlashib, diniy va dunyoviy tartib qoidalarga asoslanib yashovchi kishilarning bir jamoasi. Unda bir hududda istiqomat qiluvchi odamlar – qo'shnichilik, birodarlik, qarindoshlik rishtalari va ichki tartib qoida, ma'naviy-axloqiy me'yorlar, aniq intizom, urf-odat va an'analar bilan o'z-aro bog'langan.

Uzluksiz ta'lim – bir necha turdan tashkil topgan va o'qish, o'rganish, tarbiyalanish jihatlari o'zida ifodalagan, muayyan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot maqsadi, talablari, ehtiyojlari asosida yosh avlodni hayotga, mehnatga, ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga, Vatan himoyasiga tayyorlash uchun ularni ilmiy-dunyoviy, diniy ma'lumotlar bilan qurollantirib, dunyoqarashlarini tarkib toptirishga xizmat qiluvchi maskan.

Sog'lom turmush tarzi – bu har bir insonning ijtimoiy-madaniy hayotda, jismoniy, ma'naviy, sog'lom bo'lishi o'z ajdodini rivojlantirish uchun anatomik-fiziologik, jismoniy-ruhiy, madaniy-ma'rifiy va mavkuraviy sog'lom hayotni tashkil etish jarayoni. Sog'lom turmush tarzi o'zida jismonan baquvvat, ruxan tetik, fikri tiniq, imon-e'tiqodi butun va ma'naviyati yuksak bo'lgan insonlarga nisbatdan ishlatiladigan tushuncha.

Din – (uning asosini diniy qadriyatlar tashkil etadi va u arabcha – mulk hukum, hisob, jazo, tadbir, bo'ysinish, itoat qilish, ibodat, parhez, odat qilish, e'tiqod qilish kabi ma'nolarni anglatadi). Din turli ma'nolarda izohlanib, bandaning o'z Allohiga bo'ysinishi, itoat qilishi, ibodati, parhezkorligi, Alloh ko'rsatgan yo'lni tutishi, ma'lum ishlarni odat va e'tiqod qilishi ma'nolarida keng qo'llaniladi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotda jamiyat talab va qoidalariga, qonunlariga bo'ysinish va itoat qilish dindagi aqida, shariat va tariqat qoidalariga bo'ysinish bilan tengdir.

YUqorida bayon etilgan fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi omillar, aytib o'tganimizdek manbalar, ya'ni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini (2-bo'lim, 5-11 bob, 18-52 moddalar) bilish, fan asoslarini o'rganish, jamiyatdagi mavjud ma'naviy-ruhiy mazmunini egallash, milliy urf-odatlar,



marosimlardan xabardor bo'lish. Bu manbalar fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning omillarini, mazmunini to'ldiradi va o'quvchi –yoshlarda fuqarolik pozitsiyasining ijtimoiy-isyosiy faollik, vatanparvarlik, baynalminallik, insonparvarlik, fuqarolik burchi, mas'uliyati, majburiyatiga sodiqlik, o'qishga ongli munosabat, qiziquvchanlik va maqsadga intiluvchanlik malakalarini egallagan, mehnatsevarlik ishbilarmonlik, tadbirkorlik, xususiyatlari hamda tejamkorlik, bunyodkorlik sifatleri bilan qurollangan insonni voyaga etkazishga yordam beradi.

**XULOSA:** Xulosa o'rniga shuni aytish mumkinki YAngi O'zbekistonni barpo etish jamiyatning har bir a'zosini har tomonlama va garmonik rivojlangan insonlar bo'lishini va ularning birinchi o'rinda jamiyat uchun zarur bo'lgan fuqarolik pozitsiyasini egallashlarini lozimligini taqozo etadi. Ko'rib o'tilganidek fuqarolik pozitsiyasi jamiyatning barcha ustkurmalari - ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ma'naviy – ma'rifiy hayot, madaniy – siyosiy omillar ta'sirida tarkib topadi va rivojlanib boradi. SHuning uchun jamiyatning har bir ilg'or kishisi, ma'naviy va ma'rifiy ishlar targ'ibotchisi, avvalo, o'zida so'ngra o'z qaramog'idagi yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishni o'zining dasturulamali qilib olishi va faoliyatida unga amal qilmog'i lozim. SHunda o'quvchi – yoshlar fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishni to'la amalga oshirish yo'lga qo'yiladi va maqsadga erishiladi. Bunda, albatta, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning omillari, manbalari muhim ko'rsatma sifatida xizmat qilishi tabiiy.

#### **Adabiyotlar**

- 1.Mirziyoyev SH.M. – YAngi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. /SH.Mirziyoyev – Toshkent: O'qituvchi, 2021. 182\
- 2.Krutetskiy V.A. – Pedagogik psixologiya asoslari. /T.: O'qituvchi 1976, 304b./
- 3.Xodjaev B.Q. – Jamiyatni demokratiyalashtirish sharoitida o'quvchi-yoshlarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirish. // J. Pedagogik mahorat, 2017, 7-13b./
4. Islom. Ensiklopetsiya: A-X/ Z.Xusniddinov tahriri ostida T.: "O'zbekiston milliy ensiklopeditsyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2013. 70-71b.b.
5. Амонов М. Н. Особенности формирование организаторских качеств у учащихся педагогических колледжей //Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 9-14.
6. Amonov M. N. The problems of designing professional skills and independent training of future teachers in Uzbekistan //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3.